

AMIR TEMUR SALTANATIDA BOSHQARUVNING O`ZIGA XOS HUSUSIYATLARI

Arziqulov Yusuf Abdumurod o`g`li

Magistr, Samarqand Davlat Universiteti

Annotatsiya: XIV-XV asrlarda Mavarounahrda kechgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma`naviy-ma`rifiy jarayonlar, davlat boshqaruv asoslari, ijtimoiy, harbiy va sud-xuquq tizimida amalga oshirilgan islohotlar, Amir Temur davlatining ma`muriy tizimi, diplomatiya tarixi, tashqi siyosat va uning yo`nalishlari, xalqadro yozishmalari tarixi.

Kalit so`zlar: Amir Temur, davlatchilik, markaziy davlat boshqaruvi, mahalliy boshqaruv, ijtimoiy tizim, davlat boshlig`i, qurultoy, mudofaa, harbiy tizim, sud-xuquq tizimi, diplomatiya, tashqi siyosat.

Аннотатсия: Социально-политические, экономические и духовно-нравственные процессы в XIV-XV вв, основы государственного управления, образование социальной, военной и судебно-правовой, системы административное управление епохи Амира Темура, История дипломатии, внешняя политика и её направленияб история международной переписки.

Ключевые слова: Амира Темур, государственность, центральное, государственное управление, местное управление, Социальная система, глава государства, курултай, оборона, военная система, судебно-правовая системы, дипломатия, внешняя политика.

Annotation: Sociopolitical, economic and moral event in XIV-XV ages, bases of the government, formation of social. Military and judicial – legal system, management of an state of Amir Temur, history of diplomacy, foregn policy and its directions history of the international correspondence.

Key wors: Amur Temur, statehood, the central, government, local, management, social system, the head of the state, kurultay, defense, military, judicial-legal, system diplomacy, foreign policy

“Amir Temur sultanatida boshqaruvning o`ziga xos xususiyatlari” to`g`risida gapirganda Amir Temur davlatining paydo bo`lish shart-sharoitlari, bu davlatning o`z davridagi boshqa davlatlar boshqaruvidan farqi, yo`nalishlari, o`rta asr davlatchilik tizimidagi o`ziga xos xususiyatlar tahlil etilgan. Unda Amir Temur o`z davridagi turk-mo`g`ul, forsiy-islomiy davlat boshqaruv an`analaridan davlat va jamiyat ravnaqi yo`lida foydalanganini aytish mumkin.

Xorijlik mualliflar T. Lens va G. Louri Sohibqiron Amir Temur sultanati nafaqat harbiy kuch bilan barqaror turgani, balki bu davlat o'sha davr boshqaruvidagi siyosiy, ijtimoiy, madaniy hayotdagi turk-mo'g'ul an'analaring eng afzal jixatlarining saqlanib qolningani, ular o'z davridagi davlat boshqaruvining eng ilg'or tizimlaridan ekanini aloxida ta'kidlaydilar¹⁴.

Shuningdek, xind olimasi M. Haydar davlat boshqaruv institutlarida o'troq va ko'chmanchi aholi madaniyati aks etganligi, har ikki toifa madaniyati an'analari boshqaruvga singdirilsa-da, barcha jabhalarda turkiy davlatchilik an'analari yetakchilik qilganligi haqida asosli fikr-mulohazalar bildirib o'tgan¹⁵.

Amerika olimasi Beatris Mans Amir Temur hokimiyatga kelish arafasida Chig'atoy ulusining mavqeい katta bo'lganligi, mintaqada mo'g'ul boshqaruvi o'rnatilganligi sababli ularning siyosiy xokimiyatda katta rol o'ynagani, bu an'analarning Amir Temur davrida ham saqlanib qolganligini ta'kidlab o'tgan¹⁶. Uning fikricha, fuqarolik boshqaruvida fors tili va madaniyati an'analari ustunlik qilgan, ammo boshqarishda forsiyzabon kishilardan ko'ra turk-mo'g'ul urug'lardan bo'lgan amirlarning ta'siri kuchli bo'lgan, aksar hollarda chigatoy amirlari ma'muriy boshqaruvga jalb etilgan.

Amir Temur davlatni boshqarishda ikki toifa kishilarning – forsiy va chig'atoylarning mavqe, bilimi, tajribalaridan foydalangan, ammo ularning kuch hamda imkoniyatlarini cheklashga, boshqa monarxlar kabi barcha sohalar ustidan nazorat o'matishga intilgan"

Olima Amir Temurning davlat boshqaruvida turk-mo'gul va fors-arab an'analardan foydalangani haqida alohida ta'kidlab o'tgan.

Bizning fikrimizcha Amir Temur turk-mo'g'ul an'analardan ijodiy foydalangan, ularni rivojlantirgan, natijada yangicha siyosiy udum hamda an'analalar jamiyat hayotiga kirib kelgan. Davlat boshqaruvida o'troq va ko'chmanchi aholining diniy, milliy, mintaqaviy, etnik qadriyatları ifoda etilgan, ularning manfaatlari o'rtasidagi muvofiqlik topilgan, bu omillar esa davlat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Sultanatda ijtimoiy sohaga katta e'tibor qaratilganligi, ijtimoiy guruhlar va ularning manfaatlari inobatga olinganligi davlatchilikdagi o'ziga xos xususiyatlardandir. Amir Temur davlatning maqsad va vazifalarini salohiyatli mutaxassislar orqali amalga oshira olgan bo'lib, bu jixat o'z davridagi boshqa davlatchilik an'analardan farqlantirib turadi.

¹⁴ Lenz T, Lowry G Timur and image of power....-P 27

¹⁵. Haider M. The sovereign in the timurid state (XIV-XV senturies) 1976 №VIII P 62

¹⁶ Mans B.F Temurs personality. The rise and rule of Temirlanc Pp 20-23

Shuningdek, mamlakat mudofaasi, harbiy va sud-huquq tizimining kuchaytirilishi davlat barqarorligiga zamin yaratgan.

Shuni alohida ta'kid etamizki, Amir Temur o'z davlati sarhadlarini diplomatik usullar, ba'zan adolatli yurishlar evaziga kengaytirgan bo'lsa ham uni qonunlar, to'g'ri qo'llangan boshqaruv orqali kuchaytirgan hamda mintaqalardagi tinchlik, barqarorlik vaadolatni ta'minlashga erishgan.

Amir Temur davlatining ustkurmasida islam an'analari ustunlik qilgan bo'lsa-da, u dini, irqi va millatidan qat'iy nazar butun insoniyatning farovonligi, tinchligi, hamkorligi, do'stligi uchun xizmat qilgan.

Saltanatda davlat, jamiyat, hamda fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishga, barcha sohalardagi ijobjiy o'zgarishlarda aynan davlat tomonidan olib borilgan siyosat katta ta'sir kuchiga ega bo'lgan.

Ma'muriy tizimda ham ixchamlikka va samaradorlikka, xazina mablag'ini iqtisod qilishga katta e'tibor berilgan.

SHuningdek, Amir Temurning maslahat va kengashlariga tayanib saltanatni boshqarishni yo'lga qo'yishi uning qudrati va barqarorligiga poydevor bo'lib xizmat qilgan.

Amir Temur sultanati davlat boshqaruvida siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy tizim, ma'naviy axloqiy omillar bir-birini to'ldirgan va uzviy bog'langan.

Amir Temur davlatning iqtisodiy funksiyasini to'laqonli amalga oshirishda tadbirkorlik va xalqaro savdo-sotiq ishlariga alohida e'tibor qaratgan. Bunda birinchidan, fukarolarning moddiy ta'minoti amalga oshirilgan bo'lsa, ikkinchidan, boj-u xirojlar orqali saltanat iqtisodiy qudrati o'sib borgan. Amir Temur bu sohada yaxshi natijjalarga erishish uchun Buyuk Ipak yo'lining xavfsizligini ta'minlagan va uning ustidan nazorat o'rnatgan.

Mamlakat ichki iqtisodiy hamda ijtimoiy potensialini kuchaytirish maqsadida ijtimoiy katlamlardan hisoblangan dehqonlar, hunarmandlar, kambag'al aholi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan.

Tadqiqotlar Amir Temur davlatchiligidagi har bir ijtimoiy tabaqalarga e'tibor qaratilgani, ularning ichki o'sishiga katta imkoniyatlar yaratilganini ko'rsatadi.

Sohibqironning bunyodkorlik ishlari davlat siyosati bilan bog'liq holda olib borilgan. Chunki ulug' amir nafaqat adolat, qonunlar ustivorligini ta'minlash, balki bunyodkorlikdagi estetik imkoniyatlar ham davlat va xalq obro'-e'tiborini oshirishga, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va estetik uyg'unlik qudratning asosi bo'lib xizmat qilishini o'z davridayoq anglab yetgan.

Amir Temur ayniqsa Samarcand shahrini o'zining ko'rki va salobati bilan poytaxt talabiga javob beradigan siyosiy markazga aylantirishga harakat

qilgan. U sultanat poytaxt sifatida Samarqandda bonyodkorlik, obodonchilik ishlariiga katta e'tibor qaratish bilan birga mamlakatning boshqa yerlarda ham shifoxona, ko'prik, madrasa, masjid, rabot va boshqa imoratlarni qurdirgan. Bonyodkorlik uning davlatchilik tizimidagi eng muhim yo'nalishlardan biri bo'lган.

Sultanatda ziyoli, olim va turli sohalarning mutaxasislariga homiylik, g'amxo'rlik qilingan. Poytaxt shahar Samarqandda va boshqa siyosiy markazlarda o'sha davrning eng katta hamda boy kutubxonalari yaratilgan. Bu omillar barcha sohalar qatori ilm-fanda uyg'onish davrining kelib chiqishiga poydevor bo'lib xizmat qilgan.

Tadqiqotning "Amir Temur sultanatining ijtimoiy tizimi" deb nomlangan bo'limida Amir Temur davridagi mavjud ijtimoiy tabaqalar, mutaxasis va amaldorlarni

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ahmedov B "Amir Temur davlatini idora qilish siyosati" / "Amir Temurni yod etib"- Toshkent "O`zbekiston" – 1996
2. Bo`riyev O - "Termuriylar davri yozma manbalarda Markaziy Osiyo" Toshkent "O`zbekiston" – 1997
3. Uljayeva Sh.M "Sohibqiron vazirlarini qanday tanlagan ? " // Hayot va qonun Toshkent - 2003
4. Boboyev X. B "Amir Temur va uning qarashlari" Toshkent "Adolat" – 1992
5. " Temur Tuzuklari" Toshkent "Yangi nashr" – 2019
6. Haider M. The sovereign in the timurid state (XIV-XV centuries) 1976
7. Mans B.F Temurs personality. The rise and rule of Temirlanc